



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th August, 2025

RAQS SAN'ATI – MADANIY MEROSIMIZ

Rajabova Mohlaroy,

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

“Xoreografiya jamoalari rahbari”

ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotation.

Maqola o'zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi ob'ekti sifatidagi milliy raqs san'atiga bag'ishlangan. O'zbek raqs mifiktablarining lokal badiiy-estetik xususiyatlari va ifoda vositalari ko'rib chiqiladi. Xorazm "Lazgi" raqsining qadimiy tarixiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: an'ana, bayram, marosim, urf-odat, konpozitsiya, ifodaviylik, spektakl, balet, xoreografiya, madaniy meros.

ТАНЦЕВАЛЬНОЕ ИСКУССТВО – НАШЕ КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ

Аннотация.

Статья посвящена национальному танцевальному искусству как объекту нематериального культурного наследия узбекского народа. Рассматриваются художественно-эстетические особенности и выразительные средства локальных школ узбекского танца. Особое вниманиеделено древней истории хорезмского танца «Лазги».

Ключевые слова: традиция, выразительность, праздник, обряд, обычай, композиция, спектакль, балет, хореография, культурное наследие.

DANCE ART IS OUR CULTURAL HERITAGE

Annotation

The article is devoted to the national dance art as an object of intangible cultural heritage of the Uzbek people. The artistic and aesthetic features and expressive



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th August, 2025

means of local schools of Uzbek dance are considered. Particular attention is paid to the ancient history of the Khorezm dance "Lazgi".

Keywords: tradition, expressiveness, holiday, ritual, custom, composition, performance, ballet, choreography, cultural heritage.

O'zbek xalqi boy madaniy merosga ega. Bu meros asrlardan-asrlarga ajodlarimiz tomonidan keyingi avlodlarga yetkazib kelinmoqda. Bizning kungacha yetib kelgan tarixiy yodgorliklar va yozma manbalar diyorimizda qadim zamonlardan ilm-fan va madaniyat gullab-yashnaganidan darak beradi. Bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi yuzlab madaniy meros durdonalari, arxeologik ob'ektlar va qazilmalar buning tasdig'idir.

Madaniy meros haqida gap yuritishdan avval, biz uning ikkita tarkibiy qismi, ya'ni moddiy va nomoddiy madaniy meros xaqidagi tushunchaga ega bo'lishimiz kerak. Moddiy madaniy meros ob'ektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy qimmatga ega bo'lgan me'morchilik ansambllari, tasviriy va amaliy san'at asarlari, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

Nomoddiy madaniy meros ob'ektlari — jamiyatning urf-odatlari, marosimlari, bayramlari; xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati); tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar yig'indisi; xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar. Bugungi kunda mamlakatimizning moddiy va nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar salmog'i katta. Moddiy va nomoddiy madaniy meros qadim tarixdagi madaniy hayot, ajdodlarimiz turmush tarzini o'rganishda beqiyos ahamiyatga ega. Binobarin, istiqlolning dastlabki yillaridan boslab yurtimizda ana shu yodgorliklarni qayta tiklash, ta'mirlash, restavratsiya qilish, arxeologik izlanishlar olib borish ishlarini qo'llab-quvvatlash, yangi muzeylar barpo etishga katta e'tibor qaratib kelinayapti. [4. 12-b.] YuNESKO, ya'ni ta'lim, fan va madaniyat masalalari býyicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 2003 yilning 29 sentyabrdan 17 oktyabrgacha Parij shahrida ýzining 32-sessiyasida "Nomoddiy madaniy merosni muxofaza qilish bo'yicha xalqaro Konvensiya"ni qabul qilgan. Mazkur me'yoriy – xuquqiy xujjatda "nomoddiy



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th August, 2025

madaniy meros” tushunchasi yanada kengroq ta’riflanib, quyidagi ko’rinishda qabul qilingan:

«Nomoddiy madaniy meros» tushunchasi urf-odatlarni, ýziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va kýnikmalarni, shuningdek, ular bilan bog’liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa ýz navbatida hamjamiyatlar, guruhlar tomonidan, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi. Avloddan avlodga o’tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o’z tarixiga bog’liq holda yaratiladi va bu ularda o’ziga xoslikni, vorislik tuyg’usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini va madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga ko’maklashadi. Mazkur Konventsianing maqsadlari uchun inson huquqlari sohasida amaldagi xalqaro huquqiy aktlar bilan muvofiqlashtirilgan hamda turli hamjamiyatlar, guruhlar va shaxslar o’rtasida o’zaro hurmatni yo’lga qýyish talablariga, shuningdek barqaror taraqqiyot talablariga mos tushuvchi nomoddiy madaniy merosgina e’tiborga olinadi.

Mazkur Konventsiyada belgilanganidek, nomoddiy madaniy merosning yo’nalishlari bo’yicha grantlar ajratilishini ta’minalash, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, tadqiqot ishlariga yosh olimlarni jalb etish rejalashtirilgan.

Ayni paytda nomoddiy merosimizning milliy ro’yxatidan yuzdan ortiq nomzodnama o’rin olgan. Ularni bosqichma-bosqich tizimli ravishda YuNESKO ro’yxatlariga kiritish, jahon ahliga ko’z-ko’z qilish O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, tizim ixtiyoridagi ilmiy muassasalar, YuNESKO ishlari bo’yicha milliy komissiya, qolaversa, sohada faoliyat yuritayotgan nodavlat tashkilotlarning birgalikdagi vazifalaridandir.

Mamlakatimiz 1992 yilda YuNESKOga a’zo bo’lgach, Boysun madaniy muhiti, “Shashmaqom”, Katta ashula, Navro’z bayrami, Askiya san’ati, Palov madaniyati va an’analari, Adras to’qish, Rubob yasash va chalish kabi nomoddiy merosimiz namunalari YuNESKO reprezentativ ro’yxatiga kiritildi. [4. 15-b.]

Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi 2016 yil noyabrь oyidan milliy ro’yxatimizdagи “Xorazm raqsi — lazgi” nomzodnomasini YuNESKO reprezentativ ro’yxatiga taqdim etish tashabbusi bilan chiqdi. YuNESKO ishlari bo’yicha milliy



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th August, 2025

komissiya bu tashabbusimizni qo'lllab-quvvatlagach, fond markaziy ofisida va Xorazm viloyatida mutaxassis va olimlar, tashabbuskorlardan iborat ishchi guruhlar tuzildi.

Shundan so'ng besh oydan ortiq vaqt ichida YuNESKO talablari bo'yicha barcha xujjatlar to'ldirildi, lazgi tarixi va buguni aks etgan xujjatli fil'm suratga olindi. G.Matyoqubova lazgi haqida risola tayyorladi.

"Oltin meros" fondi nomzodnoma yuzasidan YuNESKO bilan ikki yil davomida yozishmalar olib borildi va zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etildi. Nihoyat, 2019 yilning 12 dekabrb kuni tunda Kolumbiyaning Bogota shahridan "Xorazm raqsi — lazgi" nomzodnomasi YuNESKO reprezentativ ro'yxatiga kiritilgani haqida xushxabar keldi.

Ta'kidlash joizki, hoziri kungacha YuNESKO tomonidan Turkiyaning "Mavlavi samo" (2005), Argentinaning "Tango" (2009), Peruning "Qaychi" (2010), Hindistonning "Chxau" (2010), Frantsianing "Maloya" (2009), Ispanianing "Flamenko" (2010), Malavining "Mvinogi" ("Quvonch") (2014), Saudiyaning "Al-mizmar" (2016), Keniyaning "Uokanada", Kubaning "Rumbo" (2016) kabi raqlar reprezentativ ro'yxatga kiritilgan.

Endi bevosita xalqimiz ijrochilik san'ati va lazgi raqsiga kelsak, hamyurtlarimiz o'zbek milliy raqs san'atining beshta lokal maktabi shakllanganini yaxshi biladi. Bular Farg'ona-Toshkent, Xorazm, Buxoro-Samarqand, Qoraqalpoq, Qashqadaryo-Surxonaryo raqs mакtablaridir. Bu maktablar bir-biridan o'ziga xosligi, jozibadorligi, ifodaviyligi, harakatlarining mahalliy koloriti bilan farq qiladi. [1. 24-b.]

Milliy raqs san'atimiz aniq ritm(usul)ga asoslanadi va harakatlar ohang o'zgarishiga monand ravishda tizimga solinadi. Yuqorida qayd etilgan dastlabki uch mакtab paydo bo'lishi shu hududlarda mavjud bo'lgan Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi, Xorazm xonligi hukmronligi bilan izohlansa, qoraqalpoq millati vakillarining joriy hududga kelib joylashishi O'zbekistonda raqs mакtabining yangi ko'rinishi shakllanishiga omil bo'ldi. Qashqadaryo va Surxonaryo mакtabi esa azaldan xalqona folklor unsurlarini jamlagani, erkin improvizatsiyasi bilan o'ziga xosdir. Har qanday holatda ham raqs mакtablarining ko'pligi YuNESKO tomonidan alohida hurmat qilinadigan madaniyatning teran va rang-barangligi nishonasidir.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th August, 2025

Raqsning barcha turlari kabi lazginining ham o'ziga xos tarixi bor. Bu tarix mana shu mo''tabar zaminimizda asrlar bo'yи yashagan ona xalqimiz taqdiri bilan hamohang kechgan. Mutaxassislar lazgi tarixining ayrim harakatlarini inson yaralishi bilan bog'laydi. Xalqimiz dahosining durdonalaridan bo'lган qadim "Avesto" ham ushbu raqs shakllanishida muhim o'rин tutgan. Jahon tarix fanining asoschilaridan biri bo'lган Gerodot o'z asarida bundan 2500 yildan avval qadim xorazmiylarning Oks (Amudaryo) daryosi bo'yida olov yoqib, alanga ustiga xushbo'y giyohlar sepib, o'yin-kulgi qilib, gulxan atrofida tuni bilan holdan toyguncha ajib raqs tushib, tongni qarshilashi haqida ma'lumot beradi. [2. 59-b.]

O'zoq tarixiy yo'lни bosib o'tib, lazgi raqsi bugungi kunlargacha yetib keldi. O'zbekiston xalq artisti, lazgi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan olima va amaliyotchi murabbiy Gavharxon Matyoqubova "Ofatijon Lazgi" asarida ushbu raqsning 9 turini farqlab ko'rsatadi.

"Bugungi kunda Xorazmda lazgi raqsining 9 turi mavjud, — deb yozadi tadqiqotchi. — Mana shu lazgilar har xil sharoitda paydo bo'lib, asrlar osha davrimizgacha yetib kelgan. Totemizm — "Masxaraboz lazgisi", animizm — "Qayroq lazgisi", zardushtiylik — "Olov lazgisi", afsonalardan kelib chiqqan "Dutor" va "Surnay" lazgilari, fantaziya mahsuli bo'lган "Xiva lazgisi", shart-sharoit taqozosiga ko'ra paydo bo'lган "O'g'lon bola" lazgisi, "Garmon lazgisi", elatlarining aralashuvidan kelib chiqqan Xorazm eroniylari lazgisi farqlanadi. Ularning ijro uslubi har xil. "Masxaraboz lazgisi"ni o'ynaydigan ijrochi "Xiva lazgisi"ni yoki "Dutor lazgisi"ni o'ynovchi "Garmon lazgisi"ni o'ynay olmasligi mumkin. Shuning uchun lazgi ijrochilarining uslubi turlicha, biri ikkinchisiga o'xshamaydi. Bu uslublarni o'rganish juda qiyin. Lazgining o'z ijrochisi bor. Lazgini istalgan raqqosa, san'atkor o'ynay oladi, deb o'ylashadi. Bu noto'g'ri. Lazgini yuksak darajada o'ynash uchun ilohdan berilgan qobiliyat bo'lishi kerak". [3. 54-b.]

Davlatimiz tomonidan lazgi raqsiga ko'rsatilayotgan e'tibor uning yanada rivojlanishiga va taraqqiyotiga asos bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillarida dunyoning turli mamlakatlarida o'zbek raqs studiyasi tashkil etilgan. Xozirgi kunda bunday raqs studiyalari Rossiya, Germaniya, Gollandiya, Frantsiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Isroil, Kanada, AQSh va boshqa mamlakatlarda



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th August, 2025

muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Havaskor ijrochilar o'zbek raqsining turli namunalari qatorida lazgi raqsini ham ijro etib kelishmoqda.

Xorijiy baletmeyster va xoreograflar jozibali o'zbek milliy raqslariga, xususan, lazgi raqsiga juda katta qiziqish bildirishmoqda. Misol tariqasida Kanadalik baletmeyster, York universiteti professori Sashar Zarifning 2019 yilda amalga oshirilgan «Lazgi - Transformation» xalqaro loyixasini keltirishimiz mumkin.

Ozarbayjonda dunyoga kelgan Kanadalik baletmeyster Sashar Zarif zamonaviy xoreografiyaning yetakchi ustalaridan biridir. U 25 yildan ortiqroq vaqt mobaynida Markaziy Osiyo, Kavkaz, Yaqin Sharq, Shimoliy Amerika raqs san'atini o'rganib, ularning namunalarini sahnalaشتirib kelmoqda. U qirqdan ortiq mamlakatlarda gastrol safarlarini uyushtirgan, raqs dasturlarini va spektakllarini sahnalaشتirgan. 2019 yilda O'zbekistonda Sashar Zarif «Lazgi - Transformation» nomli ijodiy loyixasini amalga oshirdi. Xorazm raqs maktabining o'ziga xos xususiyatlarini va badiiy ifoda vositalarini o'rganish, ijrochilik maxoratini o'rganish maqsadida u bir necha marta Xivaga safar uyushtiradi. Bu yerda baletmeyster maxalliy professional va folklor-etnografik ansamblarning repertuarini o'rganadi, taniqli raqqosa va baletmeyster, O'zbekiston xalq artisti Gavxar Matyoqubovadan dars oladi. Shuningdek, Sashar Zarif 2011 yildan beri Xivada o'tkazaladigan "Raqs sehri" nomli xalqaro raqs festivalida qatnashib kelgan. [5. 138-b.]

Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik Katta teatrda Germaniyalik baletmeyster Raulъ Raymondo Rebek 2021 yilda "Lazgi – qalb va muhabbat raqsi" nomli balet spektaklini sahnalaشتirdi. Klassik raqs, zamonaviy xoreografiya va milliy raqs sinteziga asoslangan balet Sankt-Peterburg, Moskva, Parij, Berlin, Istanbul, Dubay kabi shaharlarda katta muvaffaqiyat bilan namoyish etildi. Bu chora-tadbirlar jahon ahliga boy milliy qadriyatlarimizni namoyon etish bilan bir qatorda, mamlakatimizning sayyohlik jozibadorligini oshirishga ham xizmat qiladi, chunki raqs – bu do'stlik va tinchlik elchisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avdeeva L.A. O'zbek milliy raqsi tarixidan. – T.: 2001.
2. Matyoqubova G., Eshjonova Sh., Lazgi. – Urganch: 2019.
3. Matyoqubova G. Ofatijon lazgi. – T.: 1993.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th August, 2025

4.Nomoddiy madaniy meros. – T.: 2019.

5.Muxamedova M.A. Jahon va o'zbek xoreografiya san'ati tarixi. – T.: 2020.